

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSINING TUZILISHI VA AHAMIYATI

Melixolova Muxabbat Boltayevna

*Samarqand viloyati Narpay tumani 53-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika darsining o‘quvchilarning intellektual rivojlanishiga ta’siri, darsning tuzilishi hamda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, aniqlik va tartiblilik kabi muhim fazilatlarni shakllantirishdagi o‘rni yoritib berilgan. Matematika fanining bolalar uchun hayotiy ahamiyati, dars jarayonining bosqichlari va pedagogik yondashuvlar haqida tushunarli tarzda ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, matematika darsi, dars tuzilishi, pedagogik yondashuv, bolalar tafakkuri, o‘yinli metodlar, interaktiv usullar, mantiqiy fikrlash, axborot texnologiyalari, mustahkamlash, metodika.

Annotation. This article highlights the impact of mathematics in primary school on the intellectual development of students, the structure of the lesson, and the formation of important qualities in students such as logical thinking, precision and orderliness. The vital importance of mathematics for children, the stages of the lesson process and the pedagogical approaches are clearly informed.

Аннотация. В этой статье освещается влияние математики в начальной школе на интеллектуальное развитие учащихся, структуру урока и формирование у учащихся важных качеств, таких как логическое мышление, точность и упорядоченность. Четко информированы о жизненной важности математики для детей, этапах процесса урока и педагогических подходах.

Kirish. Boshlang‘ich sinf bu – bolaning dunyoni tanishga ilk qadami. Shu bosqichda o‘zlashtirilgan bilimlar uning butun hayoti davomida zarur bo‘ladi. Ayniqsa, matematika fani – bola tafakkurini o‘stiruvchi, uni aniq fikrlashga, muammoni hal qilishga o‘rgatuvchi asosiy fanlardan biridir. Farzandlarimiz bu fandan qanday bilim olsalar, kelajakda hayotlarida shuncha mustahkam poydevor yaratiladi. Boshlang‘ich ta’lim – bolalarda ilmiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va bilim olishga bo‘lgan qiziqishni shakllantiruvchi muhim bosqichdir. Ayniqsa, matematika fani ushbu bosqichda o‘quvchilarning tafakkur doirasini kengaytirishda, kuzatuvchanlik va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Chunki bu fan nafaqat hisob-kitob qilishni, balki dunyoni mantiqiy tushunishni ham o‘rgatadi. Boshlang‘ich ta’lim tizimida matematika darsi o‘quvchilarning bilim va

ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Matematika, o'zining mantiqiy tuzilishi va amaliy qo'llanilishi bilan, bolalarga nafaqat raqamlar va hisob-kitoblarni o'rgatadi, balki ularning analitik fikrlash qobiliyatini ham shakllantiradi. Boshlang'ich sinflarda matematika darslar tizimi-o'quvchilar bilan har bir darsda bir necha tushunchalar va usullar bilan ish olib borishni taqazo etadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabda matematika o'qitish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimida o'z ko'lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirdi. Aytish joizki, 1997-yil 27-avgustdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 12-moddasi 1-4-sinflarni o'qitishga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning 3.3.1-bandi uzluksiz ta'limni rivojlantirishda 1-4-sinflarda o'qitishni tashkil qilishning rejaları ko'rsatilgan. Matematika so'zi grekcha "mathema" so'zidan olingan bo'lib, uning ma'nosi "fanlarni bilish" demakdir. Matematika fanining o'rganadigan obyekti fazoviy shakllar va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. Maktab matematika kursining maqsadi o'quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar tizimini berishdan iboratdir. Maktab ta'limi oldiga tamomila yangi maqsadlarning qo'yilishi matematika o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Matematikmazmunida ham, darslik va qo'llanmalardan foydalanish metodikasida ham rivojlanish bo'lishini talab qiladi.

Asosiy qism

Boshlang'ich sinflarda matematika darsining tuzilishi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Tashkiliy qism. Darsga tayyorgarlik ko'rish, o'quvchilarning diqqatini jamlash. Darsning maqsadi aniqlanib, o'qituvchi dars davomida o'quvchilarga qanday bilim va ko'nikmalar berishni belgilaydi. (2 daqiqa)
2. O'tilgan mavzu bo'yicha savol-javob. Uy vazifasini tekshirish, o'quvchilarning bilimini mustahkamlash. (7-10 daqiqa)
3. Yangi mavzu bayoni. O'qituvchi yangi mavzuni taqdim etadi. Yangi materialni tushuntirish, misollar keltirish, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash. (10-15 daqiqa)
4. Mustahkamlash va baholash. Yangi mavzuni amaliyotda qo'llash, mashqlar bajarish, o'quvchilarning tushunish darajasini tekshirish. O'quvchilar yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash uchun turli mashqlar bajaradilar va baho oladilar. (10-15 daqiqa)
5. Uy vazifasini berish. Keyingi darsga tayyorgarlik ko'rish uchun topshiriqlar berish. Uy vazifasini tekshirish darsning majburiy bosqichidir. (5 daqiqa)
6. Dars yakuni. Darsda o'rganilgan mavzuni umumlashtirish, o'quvchilarning

faoliyatini baholash. (2 daqiqa)

Har bir bosqichning o'ziga xos vazifasi va ahamiyati bor. Darsning samaradorligi esa ushbu bosqichlarning o'zaro uyg'unligi va to'g'ri ketmaketligiga bog'liq. Og'zaki sanoqdayoq yangi bilimlarni qabul qilishga tayyorlash maqsadida o'qituvchi shunday savollarni kiritadiki, ularga beriladigan javoblar ularni yangi bilimlar bilan bog'lash hamda bilim va uquvlar umumiy tizimiga kiritilishiga yordam beradi. Yangi mavzuni, yangi materialni tushuntirishdan oldin aytish mumkin, biroq bu ishni o'quvchilarni yangi hisoblash usullari, xossasi va boshqalar bilan tanishtirilgandan so'ng yakun, tushuntirish xulosasi sifatida ham amalga oshirish mumkin. O'quvchilarning yangi mavzuni tushunganliklari savol so'rash orqali tekshiriladi. So'ngra qisqacha so'zlash, nazariy bilimlarning chuqurlashuviga ham yordam beriladi. Masalan, 1 sinfda bolalar "16-6 va 28-4 ko'rinishidagi ayirish" mavzusida yangi ayirish usuli bilan tanishadilar. Mustahkamlash uchun ular uyda ushbu misollarni yechish vazifasini oladilar:

$$75-2=? \quad 81-7=?$$

$$75-20=? \quad 81-70=?$$

Miqdorlarni taqqoslash haqidagi ilgari o'rgangan bilimlarini mustahkamlash uchun taxminiy quyidagi shakldagi topshiriqni bajaradilar:

$$7 \text{ dm} > 17 \text{ sm?} \quad 8 \text{ so'm} > 60 \text{ tiyin?}$$

$$4 \text{ sm} < 3 \text{ dm?} \quad 80 \text{ tiyin} > 75 \text{ tiyin?}$$

Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida nutq madaniyatini to'g'ri shakllantirish, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam beradi. Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi. 1-sinf o'quvchilarining bilimlarini aniqlash, sinf o'quvchilarining bilimlarini tenglashtirish, ya'ni past bilimga ega bo'lgan o'quvchilarning bilimlarini yaxshi biladigan o'quvchilarga yetkazib olish vazifasi turadi. O'qituvchi quyidagi tartibda o'quvchilarni bilimini maxsus daftarga hisobga olib boradi"

1. Nechagacha sanashni biladi?
2. Nechagacha sonlarni qo'shishni biladi?
3. Nechagacha sonlarni ayirishni biladi?
4. $>$, $<$, belgilarini ishlata oladimi?
5. Noma'lumlar bilan berilgan qo'shish va ayirishda bu noma'limlarni topa oladimi?
6. Qaysi shakllarning nomlarini biladi va chiza oladi?

7. Nechagacha sonlarni yoza oladi?

8. O'ngga, chapga, kam, ko'p, "ta", "marta", teng kabilarni farqlay oladimi?

9. Pul, narx, soat, minut, uzunlik, og'irlik o'lchov birliklari bilan muomala qila oladimi?

Bolalarni o'qitishga tayyorlashda asosiy ish metodi tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish kabi aqliy operatsiyalarni bajarish malakalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirishga katta yordam beradi, matematik bilimlarini o'zlashtirishga qiziqishi kuchaya boradi

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

a) o'quvchilarga ma'lum dasturi asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim;

b) o'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarni tarkib toptirish lozim bo'ladi. Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida nutq madaniyatini to'g'ri shakllantirish, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak;

d) o'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida haqiqatlarni bilishga o'rgatish. Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi. Boshlang'ich sinflarda matematika darslarini samarali o'tkazish uchun turli o'qitish metodlari qo'llaniladi:

□ Vizual metodlar. Diagrammalar, grafiklar va boshqa vizual materiallar yordamida o'quvchilar mavzuni yaxshiroq tushunadilar.

□ O'yinlar va interaktiv faoliyatlar. O'yinlar orqali o'qitish bolalarning qiziqishini oshiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

□ Guruhli ish. O'quvchilarni guruhlariga bo'lish orqali ular bir-biridan o'rganishlari va muloqot qilishlari mumkin.

Boshlang'ich matematika kursining eng muhim jihati uning amaliy yo'nalishi hisoblanadi. Yuqori sinflarda matematika dasturidagi ayrim masalalar nazariy bo'lsa, boshlang'ich sinflarda har bir yangi tushuncha, xossa yoki qonun amaliy faoliyat bilan bog'liq ravishda kiritiladi. Masalan, 4-sinfda o'quvchilar to'g'ri

to'rtburchak tushunchasini o'zlashtirganlarida, bu ularning to'g'ri to'rtburchak ta'rifini bilishlari, uning belgilari va xossalarini mantiqiy ravishda keltirib chiqarishlari, shuningdek, ta'rifi, alomatlari va xossalariga oid amaliy masalalarni yechish uchun foydalanishlarini anglatadi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar to'g'ri to'rtburchakning qarama-qarshi tomonlari tengligini o'lchash orqali aniqlaydilar va to'g'ri to'rtburchakni yasash, uning perimetrini va yuzini o'lchash va hisoblashni o'rganadilar.

Matematika darsi boshlang'ich sinflarda bolalarning umumiy rivojlanishi uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Birinchidan, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun. Matematika mantiqiy fikrlashni talab qiladi, bu esa bolalarga muammolarni hal qilishda yordam beradi. Ikkinchidan, muammolarni hal qilish qobiliyati uchun. Matematik masalalar orqali bolalar turli xil muammolarni hal qilishni o'rganadilar.

Uchinchidan, hayotiy ko'nikmalar uchun. Matematika kundalik hayotda zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi, masalan, xarid qilishda yoki vaqtni rejalashtirishda.

Xulosa: Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinflarda matematika darsi nafaqat raqamlar bilan ishlashni o'rgatadi, balki bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Hozirgi zamonning muhim talablaridan biri o'quvchilarning bilish va ijodiy faoliyatlarini aktivlashtirishdan iborat. Har bir dars fikrlash, ijod qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunday jarayonlarda o'qituvchi tomonidan butun sinfga topshirilgan ijobiy ishda har bir o'quvchining maksimal bilimini hisobga olish, maxsus didaktik materiallardan foydalanish, muammoli vaziyat yaratish, testlardan foydalanish, har xil ko'rsatmali va ekran vositalarini qo'llash, darsda musobaqa shaklidan foydalanish, darsda alohida va umumiy ishni birgalikda mohirona olib borish, differentsiallashtirish o'qitishni amalga oshirishda muhim hisoblanadi. Darsning tuzilishi va samarali o'qitish metodlari orqali o'quvchilar matematikani qiziqarli va foydali fan sifatida qabul qilishlari mumkin. Natijada, matematika darsi boshlang'ich ta'lim tizimida mustahkam poydevor yaratadi, bu esa kelajakdagi ta'lim va hayot uchun zarur ko'nikmalarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarova N.N., Abdukarimova R.A. BOSHLANGICH SINFDA MATEMATIKA OQITISHNI TASHKIL QILISH SHAKLLARI // Ученый XXI века. 2022. №9 (90).
2. E. Jumayev. «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari». «Yangi asr avlodi». 2006-yil
3. M.H.Hakimova. Matematika o'qitish metodikasi. Toshkent-2020
4. Jumayev Mamanazar Ergashevich, Tadjiyeva Zumrad G'iyosovna. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent-"Fan va texnologiya"-2005
5. Sultanov R. O., Yusupov M. R. (2020). Ta'limda matematika fanini o'qitishdagi muammolar va ularning yechimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati. O'zMU xabarlar, 2(1/2/1), 144-147
6. Bikboyeva N.U va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi (Pedagogika bilim yurti talabalari uchun o'quv qo'llanma). T.: "O'qituvchi", 1996.
7. Kolyagin Yu.M., Oganessian V.A., Sanninsky V.Ya., Lukanin G.L. Methods of teaching mathematics in primary school. General methodology. Textbook. manual for the student nat. - mat. fac. ped. Institutes pp. 27-28,207-209,349-351